

## NAVOIY ASARLARIDAGI AYOLLAR TIMSOLIDA KOMILLIK TALQINI

**Akbarova Shaxzoda Alisher qizi**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Siyosatshunoslik yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ma'ruzada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ayollar timsoli orqali komil inson g'oyalari targ'ibining ayrim jihatlari o'rganiladi. Buning uchun uning xalq orasida hikmatli so'zga aylanib ketgan bir necha bayti sharhlanadi, shuningdek, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr", "Tarixi mulki Ajam" asarlaridagi ba'zi xotin-qizlar timsollari tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, ayollar timsoli, komil inson g'oyasi, hikmatli so'z, bayt, hikoyat, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr", "Tarixi muluki Ajam".*

Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto, kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal etish mushkul. Jamiyat o'zgarayotgan, ong yangilanayotgan bir zamonda yashayotgan ekanmiz, bu masalalarni hal qilishda bugungi ayollarimizning mavqei qanday bo'lishi kerak? Yoki, umuman, ayol ma'naviyati deganda nimalarni tushunishimiz ozim? Bu savollarga javob topishdan oldin "ayol" so'zining ma'nosiga bir e'tibor beraylik. Asli arabcha "ayol" so'zi "oila" kalimasi bilan o'zakdosh. Eski tilimizda "oila a'zolari" tushunchasi "ahli ayol" birikmasi bilan ifodalangani shundan. Chindan ham, oilaning fayzu barakasi ko'p jihatdan ayolga bog'liq. Xalqimiz bekorga ayollarimizni "uy bekasi", "xonadon farishtasi" deb ulug'lamaydi. Demak, ayol ma'naviyati – oila ma'naviyati tushunchasining uzviy qismini tashkil etadi. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi o'g'il-qizlarimizning qanday insonlar bo'lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga vobasta. Shuning uchun aksariyat buyuk qalam sohiblari ayollar timsolida ham komil inson g'oyasi targ'ibini amalga oshirishgan. Rost, o'zbek ayoli zimmasiga o'ta milliy, sharqona ma'naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksak darajalarda, zamonaviy asoslarda davom ettirish mas'uliyati yuklangan. Hayo, ibo, iffat, farosat, nazokat, samimiylik, kamtarlik, oqilalik, uddaburrolik... Eh-he, chinakam ma'naviyatli ayollarimizga xos qanchadan-qancha fazilat bor! Xususan, o'zbek ayolidagi vafodorlikni aytmysizmi? Bu jihatdan millatimizga jahonning hech bir



xalqi teng kelolmasa kerak. Ayol ko'hna Sharqda hayo va ibo timsoli hisoblanadi. Ayol mavzusi poetik ifodasining yorqin namunasini buyuk mutafakkir so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodida ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy o'zining g'azallarida go'zal ayol siymosining takrorlanmas namunasini yaratgan. Mutafakkir g'azallarida ayol timsoli yuksak hurmat cho'qqisiga ko'tarilgan. Uning g'azallarida ayolning jamiyatdagi o'rni, qalb tug'yonlari nazm ipiga marjondek tiziladi, nasriy va nazmiy asarlarida yaratilgan ajoyib obrazlari orqali insonparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Navoiy asarlarida ayol obrazining quyidagi xislatlarini ko'rishimiz mumkin: mislsiz husn va go'zallik (jismoniy tomondan); chuqur aql-farosat (aqliy tomondan); ilm va ma'rifat (madaniy tomondan); davlat va mamlakat ishlarida faol ishtirok (ijtimoiy tomondan); jang va kurashda bahodirlik (jangovarlik tomonidan). Navoiy o'z davrining mashaqqatli hayot tarzi va zulmi ostida ezilib yashagan ayollarning qaddini ko'tarish maqsadida asarlarida ular haqidagi ilg'or fikr va orzularni yuksak badiiy shakl va bo'yoqlarda, o'ziga xos badiiy vositalar ifodasida ko'rsatib beradi. Ayollarga nisbatan hurmatsizlik qilish, ularga past nazar bilan qarash kabi yomon illatlarni tanqid ostiga oladi. Ayol atalmish nozik hilqatning betimsol obrazlarini yaratib, o'zining hayotiy va romantik orzularini bayon qiladi.

Qoshbirla, ko'zing yaxshi yonog'ing yaxshi,  
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,  
Yeng birla menging yaxshi saqoqing yaxshi,  
Birbir ne deyin boshdin to oyoqing yaxshi.

Navoiy yaratgan ayol siymosini uning "Xamsa" asarida mukammal ifodasini topgan. Navoiy yaratgan ayol obrazlaridan yana biri "Shirin" obrazidir. Mutafakkir uni quyidagicha ta'riflaydi:

Qadi rux ofati chobuklik ichra,  
Beli jon rishtasi nozukluk ichra...  
Labidin jon tomib bisyor-bisyor,  
So'zidin shahd oqib xarvor-xarvor.  
Labidin tomibu ohib latofat,  
Yuzidin ohibu tomib malohat.

Uning qaddi chaqqonlikda ruhdai, beli noziklikda jon tomiriday bo'lib, labidan juda ko'p jonlar oqar, so'zidan talay bollar tomar edi. Labidan chiroy, yuzidan go'zallik oqib, tomib yotar edi. Shirin obrazi oqil va dono, ijodkor, vafodor, vatanparvar kabi fazilatlariga ega bo'lgan mukammal ayol obrazidir. Alisher Navoiy tasviridagi Shirin har jihatdan go'zal inson. Uning ma'naviy dunyosi va uni o'rab turgan muhit ham har jihatdan Farhodga mos, go'zal va yuksak darajada. Shoir bu ikki badiiy timsol misolida ham o'z davri uchun, ham o'zidan keyingi barcha davrlar



uchun ibrat bo'la oladigan ma'naviy go'zal va samimiy, komil insonlar konsepsiyasini yaratadi. Navoiy ijodiy merosi - bebaho xazina. Navoiy o'zining ideal ayol obrazlarini yaratar ekan, mubolag'a va fantaziya elementlaridan ko'p foydalanadi. U kelajakning mukammal, har yoqlama kelishgan, ruhiy, aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetgan ayollarini kuylaydi. Lekin shu bilan birga bularni tamomila xayolning mahsulidir, deyish ham to'g'ri emas. XV asrda Navoiy yashagan muhitda ham Layli, Shirinlarning ma'lum xislatlarini, voqealarini o'zlarida gavdalantirgan go'zal ayollar yashagan. Ishq fojiasinipg qurboni bo'lib ketgan fidokor va vafoli o'zbek qizlari bo'lgan. Navoiyga ilhom bergan real prototiplar (tiplarning jonli kamunalari) shubhasiz bu g'amgin dostonlarni jonli taassurot bilan sug'organ va Navoiyning hissiyotini bevosita o'zlariga bog'lagan edilar. Navoiy yaratgan ayollar nafaqat tashqi husn bilan, balki, o'z aql va farosatlari bilan ham ajralib turadilar. Ularning jamiyat bilan munosabatlari, atrofdagilar bilan muomala madaniyatlari, savol-u javoblari, muhokama va mulohazalari buning yaqqol dalilidir. Shunday ayollardan biri Mehinbonu hisoblanadi. Mehinbonu adolat homiysi, buyuk iste'dod egasi sifatida ta'riflanadi. Navoiy ijodidagi ayol obrazlari ichida alohida o'rin tutgan, oqila va adolatli bir malikaning namunasidir. Mehinbonu to'g'risida Navoiyning o'zi shunday deydi:

“Mehinbonu kamol izhor aylab,  
Daqoyiqdin savol izqor aylab...

Mehinbonu o'zining aql-kamolini ko'rsatib, nozik gaplardan savol qila boshladi. Yana: Mehinbonuki donishparvar erdi, Bilik ahliga shohi sarvar erdi. (Fanparvar bo'lgani Mehinbonu bilim ahliga yo'l boshchi shoh edi.) Mehinbonu o'z davlatini aql va tadbir bilan boshqarib, mamlakatning obodonchiligi uchun qayg'uradigan, kanallar, ariqlar, qasrlar yasash uchun keng ko'lamda ish olib boradigan jonkuyar obraz. Mehinbonuga shunday ta'rif beriladi:

Ki bu kishvardakim rashki jinondir,  
Bukun ismatpanohi hukmrondur.  
Agarchi soya solmas boshig'a toj,  
Va lekin tojvarlardin olur boj,  
Belin garchi kamar topmay kamohi,  
Vale zarrin kamarlardur sipohi.  
Bu yanglig'durki fahm etting sifotin,  
Mehinbonu debon davr ahli otin.

"Sab'ai Sayyor" asaridagi chang chaluvchi Dilorom timsoli, vafodor ayol qiyofasi o'ziga xos, usta san'atkorligi go'zal ko'rinishlar orqali ifodalab beradi. Dilorom obrazi Bahromning Navoiyning salafllari ijodida Ozoda va Fitna nomlari



bilan talqin etilgan sozanda kanizagiga borib taqalsa-da, Diloromning sozanda, dono, oshiqligini nazarda tutsak va muallifning dostonidagi ishoralariga e'tibor beradigan bo'lsak, donolik, go'zallik va musiqa homiysi – sa'di asg'ar nomini olgan Zuhra (Venera-Afrodita-Ishtar) timsoli mujassamlashganligini ko'rishimiz mumkin. Bu obraz shumer xalqining homiysi, muhabbat va go'zallik ilohasi Inanna qiyofasida dunyo yuzini ko'rgan bo'lib, Bobilga Ishtar shaklida o'zlashdi. U Misr tamadduni orqali yunonlarda Afrodita, Rimda Venera nomi bilan shakllandi. Yunonellin madaniyati ta'siridagi xalqlarga Anaxita, islom Sharqida Zuhra sayyorasi, oshiqlar homiysi, Tong va Toile' yulduzi timsolida yashab qoldi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi Chin go'zali Lubatiy Chiniy obrazi ham jasur, kuchli, mard, janglarda o'z matonati bilan dushmanlarga qarshi mardonavor kurashib, faqat g'alaba qozongan mukammal qahramon ayol timsolidir. Alisher Navoiy yuqoridagi kabi ayollar obrazini yaratish bilan oldiga muhim ijtimoiy muammolarni qo'yadi. Shoirning besh asr avval orzu qilgan o'y va istaklari bugun ozod va obod mamlakatimizda o'z ijobatini topmoqda. Bugun yurtimizda ayollar qadr topgan. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, o'zlarining go'zal ma'naviyati, bilim va ma'rifati bilan millatimiz sha'nini, yurt ravnaqini ko'tarishga katta hissa qo'shmoqdalar. Qadim-qadimdan ayol tabiatning noyob xilqati, go'zallik, sevgi-muhabbat, matonat va sadoqat ramzi sanab kelingan. Buni bizgacha yetib kelgan qadimiy rivoyatlar, ertak va afsonalar, buyuk allomalarimiz asarlarida ayol siymosiga, uning suvratiyu siyratiga chizilgan tavsiflar misolida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, buyuk bobokalonimiz, g'azal mulkingning sultoni bo'lmish Mir Alisher Navoiy asarlarida Sharq ayollarining barcha go'zal fazilatlarini o'zi fodasini topgan. Ayol haqida fikr yuritar ekan, Navoiy "Mahbubul-qulub" asarida shunday yozadi: "Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard alamda ham dardkashga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u, teskari aylanuvchi falakdan boshingga gar balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'nglingga g'am yuzlansa, u hamg'amnok, badaningga xastalik va zaiflik yetishsa, uning ham joni halak". O'tmishning chirkin aqidasi bo'yicha, "aqli kalta", "ojiza", "zaifa", "erning quli" deb tan olingan ayol - ona Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida buyuk zot darajasida ko'rsatiladi:

Onalarning oyog'i ostidadir,  
Ravzai jannatu jinon bog'i.



Ravza bog'i visolin istar ersang,  
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

Alisher Navoiyning adabiy ijodi bitmas tuganmas xazinadir. Uning "Nasoyim ul muhabbat" asari boshqa asarlari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy mazkur asarda avliyo ayollarga alohida urg'u beradi. Ayol shoirlar haqidagi "Tazkirat un-niso" asari adabiyotimiz tarixidan bizga ma'lum. Ammo avliyo ayollar haqidagi tazkiralar juda ozchilikni tashkil qiladi. Shu jihatdan Navoiyning 770 ta shayxga bag'ishlangan "Nasoyim ul muhabbat" tazkirasini alohida ajralib turadi. Alisher Navoiy qurdobalik Fotima binti Musonnaga alohida ehtirom bilan yozgan. Fotima binti Musonna Qur'onning «Fotiha» surasini tasxir qilgan (bo'ysundirgan), duolari mustajob, karomat sohibi bo'lgan. Ibn Arabiy uning xizmatini qilgan va bu haqda «Futuhoti Makkiya» kitobida qayd etib, uni «butun yer yuzi aholisi uchun Alloh tomonidan jo'natilgan rahm-shafqat» deb ta'riflagan. Fotima Ibn Arabiyning ma'naviy «onasi» bo'lgan. Adabiyotshunos O.Jo'raboyevning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirgan voqea Ibn Arabiyning «Futuhot» asaridagi «Oshiqning turli hollari haqida anglatilgan voqealar» faslida batafsil keltirilgan va Fotimaning haqiqiy ishq ichidagi holati bayon etilgan. A.Shimmelning e'tirof etishicha, Ibn Arabiy so'fiy ayollarga hurmat-e'tiborda bo'lgan. Ko'pchilik ayol avliyolarga ta'rif berganda Navoiy ularni qaysi shahardan ekanligi, kimlar bilan suhbat qurganligi hamda ular hayotidan bir yoki ikki hikoya, ayrimlarida esa she'riy bayt ham keltirib o'tadi. Masalan Navoiyning Rayhonai Volihaga bergan quyidagi ta'rifiga diqqat qaratamiz: "Basraning muta'abbidotidin ermish. Solih Murriy rahimahullohu taolo ayyomida bu abyotni yoqasi o'llig'a bitib erkandur. "Sen munisim, himmatim va sururimsan, qalbim sendan boshqani sevishni istamaydi. Ey azizim, himmatim va murodim, shavqim ado bo'lmas, qachon diydoringga musharraf bo'laman? Maqsadim jannat ne'matlari emas, faqat seni ko'rmoqni orzu qilaman." Bu yerda Rayhonayi Voliha Allohga bo'lgan muhabbatini yuqoridagi bayt orqali bildirayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shunday qilib Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" asari bizga nafaqat shayx-u mashoyihlar, balki avliyo ayollar haqidagi bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Hazrat Navoiyda ajib bir bayt bor. Unda lirik qahramon shoirga dalda berib, agar yoring bevafo bo'lsa, zinhor o'ksima, chunki u sanamning chiroyida ham vafo yo'q, – bu go'zallikning o'zi ham – baribir, o'tkinchi, deydi:

Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish oning sanga,  
G'am yemokim, anga ham husni vafosi qolmamish.

Alloh ayol zotini shunchalar go'zal, nazokatli xilqat qilib yaratganki, endi shunga shukr qilib, bu husnu malohatni saqlay bilish, uni bozordan olib,



bozorga solmaslik ham – buyuk bir insoniylik, yuksak ma'naviyat. Bandasiga berilgan fazilat bir-birini to'ldirib keladi. Oqibatsiz, hayosiz, uyatsiz kishida oriyat, vafo bo'lmaydi. Buni Navoiy bir hikmatli baytida shunday ifodalagan.

Hayosizda vafo yo'q,

Vafosizda hayo yo'q.

Ayolning vafosi – uning pokligida. Nazarimda, xuddi shu jihatlari bilan ular erkaklardan ajralib turadi.

Navoiy:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotunlar ayog'ining izi, – deganida, ehtimol, shuni ko'zda tutgandir.

Navoiy asarlaridagi qator hikoyat va rivoyatlarda ezgu fazilatlar qalamga olingan. Ular faqat erkak timsollari orqaligina emas, ayollar misolida ham keng targ'ib etilgan. Ne-ne ulug'larni, buyuklik darajasiga olib chiqqan ham – onalar. Shu o'rinda yana Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan bir muhim hikoyatni eslab o'tish – joiz. Asarda Iskandar mukammal inson sifatida tasvirlanadi. Lekin dostonidagi jahongirning onasiga yozgan maktubi berilgan bobda Iskandarday mukammal inson ham o'limi yaqinlashganda o'zini onasi oldida aybdordek bilganini aytadi. "Bir umr sening xizmatingni qilsam, bo'lmas edimi?" – deydi.

Garchand Iskandar shunchalik aqlli, dunyoning katta qismidagi ko'p mamlakatlarni egallagan jahongir bo'lishiga qaramay, hayotining oxirida uni shunchalik buyuklikka, ulkan zafarlarga musharraf etgan onasi ekanini angelaydi, ammo farzand sifatida uning xizmatida bo'la olmaganidan afsuslanadi, o'g'illik burchini ado etolmagani uchun o'zini aybdor his qiladi. Shuning uchun u maktubi orqali validasidan kechirim so'raganday, shu tariqa o'ziga o'zi tasalli berganday bo'ladi. Asarda Iskandar o'limidan keyin yetti iqlimdan donishmandlar uning onasiga ta'ziya bildirgani kelishgani tasvirlanadi. Shu yo'l bilan shoir onaga baho beradi. Aflotun Iskandar onasini zamonasining eng oqila, sheryurak, yuzlab mard sherlarga barobar zot ekanini, Suqrot uning eng yetuk, barkamol ayolligini, Balinos hushyor, donoligini, Buqrot tog' kabi vazmin, sabrli, Xurmus bilimdonligini, Farfunyus so'zlari gavhar, purma'noligini, Arastu g'amga bardoshli ekanini aytib, ta'riflaydi, shu tariqa unga dalda beradi. Ana shu ta'riflar orqali Navoiy Iskandar onasining komilaligini qayd etib, zimdan onalarimizni har tomonlama mukammal bo'lishga da'vat qiladi.

"Saddi Iskandariy" dostonida keltirilgan bir hikoyatda bir shohga bir ustunlik uy qurish orzusi tushadi. Xizmatchilari qidira-qidira bir to'g'ri o'sgan baquvvat daraxt topishadi. Uning egasi bir qari kampir edi. U yog'ochini



sotishga rozi bo'lmaydi. Nihoyat kampirga yog'och og'irligida oltin tortib berishadi. Uyni qurib, ichini gavharlar bilan bezatganlaridan keyin ustunni ham zarnigor qilganlar. Kunlardan bir kuni kampir imoratni tomosha qilishga keladi va yog'ochni o'pib: "Sen to'g'ri bo'lib o'sganing tufayli o'zingni ham, meni ham oltinga ko'mding!" – deydi. To'g'ri o'sgan chiroyli bir daraxt kishini shunchalik baxtiyor qiladigan bo'lsa, to'g'ri so'z va halol bir odamning qilgan ishi uning fazilatini ta'riflab bitirish – mumkinmi? Hikoyatda Navoiy onalar farzandlarini to'g'ri tarbiyalab, voyaga yetkazsalar, ular bu ezgu fazilatlari bilan ota- onasiga

sharaf, jamiyatiga katta foyda keltirishini tik o'sgan daraxt misolida targ'ib etadi.

Hazrat Alisher Navoiy oltmish yillik umri davomida, avvalo, millatimiz, qolaversa, umumbashariyat ma'naviyati va ma'rifati ravnaqi uchun abadulabad xizmat qiladigan boy adabiy meros qoldirdi. U barcha asarlarida insoni sharifini ulug'laganiga guvoh bo'lamiz. Buyuk shoirning falsafiy aqidasi ko'ra, butun borliq, jamiki mavjudot inson tufayli va inson uchun yaratilgan. Shu sabab insonparvarlik uning asarlari bosh g'oyasi hisoblanadi. Shoir komil insonga xos fazilatlarni targ'ib etish bilan birga ayollarda uchraydigan illatlarni ham qattiq qoralagan. Bu, xususan, "Xamsa"ning birinchi dostoni – "Hayrat ul-abror"da juda kuchli namoyon bo'lgan. Bu dostonni, o'ziga xos odobnoma, desa bo'ladi. Dostonning asosini 20 maqolat tashkil etgan va har bir maqolatda bir muhim hayotiy masala badiiy tahlil etilgan va buning hayotiy tasdig'i sifatida unga bittadan hikoyat ilova qilingan. 6-maqolat – maxsus odob haqida. Unga ilova tarzida No'shiron hikoyasi berilgan. Bu shahzodadagi hayo misolida qizlarimizda undan ham yuksakroq fazilatlar bo'lishi lozimligini uqtiradi. Yozilishicha, No'shiron bir chamanda gulrux yori bilan suhbat quradi va go'zal tomon qo'l uzata turib, ko'zi birdan nargis guliga tushib qoladi. U gul No'shironvonga odam

ko'zini eslatadi. Shunda No'shiron, men beodoblik qilyapman, deb o'ylab, guldan uyaladi va uzatgan qo'lini tortadi. Bu hikoyatda Navoiy yigit kishida hayo, ibo, uyat tuyg'usini ta'riflash orqali zimdan ayollarimizda bunday fazilatlar ulardan ko'ra ko'proq, yuksakroq bo'lishi lozimligi g'oyasini ilgari suradi.

"Lison ut-tayr" asarida keltirilgan bir hikoyatda erkaklar ayol kishiga muhabbat qo'yib, shunga berilib ketib, ilmdan, ma'rifatdan uzoqlashib qolmasligi tanqid ostiga olinadi. Ayolning chiroyiga mahliyo bo'lib, yigit o'z maqsadlaridan voz kechmasligi lozimligi uqtiriladi. Arastuning shogirdlari orasida ilmiy anjumanlarda kimsan – Aflotun bilan ham bahs qila oladigan zo'r bir yigit bor edi. Ustoz uni farzanddek ko'rar edi. Lekin yigit bir mohiliqoga oshiqi beqaror bo'lib qoldi. To'ydan keyin kitob o'qishni ham unutib, yorining oldidan



jilmay qoldi. Ustozning pand-nasihatlarini kor qilmadi. Qarasaki, shuncha mehnat zoe ketyapti. Oshiqlik bir umidli olimni ilmdan ayirayotibdi. Arastu bir maxfiy chora qilib, kelinga dori ichirdi. Yigit, qancha yugurib-yelsa ham, kelin dardiga chora topolmay, ustozni oldiga bordi. Ustoz shogirdini Iskandar xizmatiga yuborib, kelinni davoladi. Xizmatkorlariga kelinning qusganlarini yig'ib qo'yishlari tayinladi. Nihoyat kelin qusib, bujmaygan bir holatga kelib qoldi. Yigit kelib, qarasaki, uning oldingi go'zalligidan asar ham qolmagan. Ustozni shogirdiga kelinni ko'rsatib, go'zallik o'tkinchiligiga ishora qildi. Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida otasiga vafo qilmagan qizni ayanchli taqdirini tasvirlaydi. Toyir podshohning "Malika" ismli go'zal qizi bor edi. "Shopur" degan yosh bir podshoh Toyir yurtiga yurish qilib, saroyini qamal qiladi. Malika Shopur ta'rifini eshitib, unga g'oyibona mahliyo bo'ladi. Otasining saroyi darvozalarini ochib berishga imkoniyat yaratadi. Shopur mamlakatni egallab, Toyirni o'ldiradi. Malikaga uylanadi. Bir kuni Malika uxlo olmay qiynalganini ko'rganlar podshohga buni bildirishadi. Shopur surishtirsa, bir murud bargi to'shak ostida qolgani uchun u shuncha bezovta bo'lgan ekan. Shopur xotinidan: "Seni ne nav' tarbiyat qilibdurlarkim, muncha nozuk bo'lubsen?" – deb so'raydi. Malika otasi uni ilik ustiga novvotni un qilib sepib berib boqqanini aytadi. Shunda Shopur: "Andoq

parvarish bergan otag'a ne vafo qildingkim, manga qilg'aysen?!" – deb, uni o'limga mahkum etadi. Navoiy bu hikoyat orqali otasi, Vatani, xalqiga vafo qilmagan ayol eriga ham vafo qilmasligi masalasini o'rta qo'yadi. "Nasoyim ul-muhabbat..." tazkirasida yozilishicha, Bahouddin Naqshband yoshlik paytlari tushida yassaviya pirlaridan Hakim Ota, ya'ni Sulaymon Boqirg'oniyni ko'radi. U Bahouddinni bir darvesh ixtiyoriga topshiradi. Bu tushini bolakay ona bibisiga aytib berganida, u: "Ey farzand, senga yassaviya shayxlaridan bir nasiba bo'ladi", – deb bashorat qiladi. Yillar o'tib, Bahouddin o'sha darveshni o'ngida ko'rib, unga bir necha yil muridlik qiladi. Bu Xalil Ota edi. Demak, Bahouddinning ona tarafdan bibisida ham fazilat mavjud edi. Ana shu "Nasoyim ul-muhabbat..." tazkisasi oxirida Navoiy "erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri"ni beradi. Biz shu tariqa islom olamida o'tgan 35 nafar avliyo ayol haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Xullas, Navoiyning qaysi bir asarini o'qimaylik, u xuddi bugun yozilgandek bizga ma'naviyat ulashadi, demak, ular hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi. Bu ijod namunalari hozir ham yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'rifatini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Navoiy asarlari o'zining boy mazmuni, chuqur g'oyalari bilan abad ul-abad kishilar qalbini rom etaveradi. Shu tariqa ular har zamonning eng zamonaviy so'zi bo'lib qolaveradi.







## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 7. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 11. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 12. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 17. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Olim S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

